

HARBIY XIZMATCHILARDA STRESSGA BARDOSHLILIKNING GENDER JIHATLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-725-728>

Ahmadjonova Nargizaxon Adiljanovna
Psixol.f.f.d (PhD) Alfraganus Universiteti
Psixologiya kafedrası v.b dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarda stressga bardoshlilikning gender jihatlari tahlil qilinib, erkak va ayol harbiylarning stressga munosabati hamda moslashuv imkoniyatlaridagi o'ziga xosliklar ilmiy-nazariy va amaliy nuqtayi nazardan yoritiladi. Tadqiqot natijalari harbiy xizmatchilar bilan ishlashda differensial yondashuvni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Harbiy xizmatchilar, gender, maskulin, feminin, shaxs, xarakter, ayollar, erkaklar.

Аннотация. В данной статье анализируются гендерные аспекты стрессоустойчивости военнослужащих, а также с научно-теоретической и практической точки зрения выделяются особенности реакции на стресс и адаптивности военнослужащих мужского и женского пола. Результаты исследования служат выработке дифференцированного подхода к работе с военнослужащими.

Ключевые слова. Военнослужащие, гендер, маскулинность, фемининность, личность, характер, женщины, мужчины.

Annotation. This article analyzes the gender aspects of stress resistance of military personnel, as well as from scientific, theoretical and from a practical point of view, the features of the reaction to stress and adaptability of male and female military personnel are highlighted. The results of the study serve to develop a differentiated approach to working with military personnel.

Key words. Military personnel, gender, masculinity, femininity, person, character, women, men.

Zamonaviy harbiy faoliyat yuqori darajadagi psixologik zo'riqish, mas'uliyat va xavf bilan tavsiflanadi. Harbiy xizmatchilar doimiy ravishda favqulodda vaziyatlar, qat'iy intizom, jismoniy va ruhiy yuklama, shuningdek, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish zarurati bilan yuzma-yuz keladilar. Bunday omillar stressning kuchayishiga olib kelib, shaxsning stressga bardoshlilik darajasi uning kasbiy samaradorligi, sog'ligi va xizmat faoliyatining barqarorligini belgilovchi muhim psixologik omilga aylanadi. Shu sababli harbiy xizmatchilarda stressga bardoshlilikni o'rganish harbiy psixologiya va amaliy faoliyat nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi.

So'nggi yillarda harbiy sohada ayollar ulushining ortib borishi stressga bardoshlilik masalasini gender jihatdan tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Erkak va ayol harbiy xizmatchilarning stressni idrok etishi, unga moslashish strategiyalari, emotsional javob reaksiyalari hamda psixologik himoya mexanizmlarida ma'lum farqlar mavjud bo'lishi mumkin. Gender omili biologik,

ijtimoiy va madaniy xususiyatlar bilan bog‘liq holda stressga chidamlilikning shakllanishi va namoyon bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu farqlarni hisobga olmaslik harbiy tayyorgarlik, psixologik qo‘llab-quvvatlash va rehabilitatsiya tizimlarining samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Maskulinlik hamda femininlik eng umumiy shaklda har bir jamiyatda erkak va ayolga xos bo‘lgan munosabatlar, rollar, xatti-harakatlar me’yorlari, qadriyatlar iyerarxiyasi sifatida ifodalanishi mumkin.

XIX asr oxiri va XX boshlarida qator Yevropa davlatlarida ayollar huquqlari bo‘yicha ommalashgan harakatlar – feminizm (lotin. – femina – ayol) hamda emansipatsiya g‘oyalari (lotin. Emancipatio – ozodlik) bilan bog‘liq bo‘lgan. Mazkur harakatlar nafaqat insonlar ongining shakllanishiga, balki ayol va erkak o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni psixologik tadqiqotlarining yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi [1].

Gender psixologiyasining tabaqalashtirilgan tushunchalar ketma-ketligi birinchi – falsafiy nuqtai nazardan g‘oyalarning vujudga kelish (antik davrdan XIX asr oxirigacha) davri; ikkinchi – gender psixologiyasining bo‘limlari va predmetlarining shakllanish davri (XIX asr oxiri va XX boshi);

uchinchi – psixoanalizning gender tadqiqotlariga ta’sir ko‘rsatish davri (XX asrning boshi – 30 yillar); to‘rtinchi – genderning eksperimental jihatdan tadqiq etilishi va birinchi ilmiy konsepsiyalarning yuzaga kelish davri (1950–1980-yillar); beshinchi – gender psixologiyasining yangi ilmiy yo‘nalish sifatida izchil rivojlanish davri (1990-yildan bugungi kungacha) bo‘lgan davrni qamrab oladi [2].

Z.Freydning “Psixoanalizga kirish” nomli asari shaxsning rivojlanishi va shakllanishi to‘g‘risidagi tushunchalar doirasida psixoanalitik yondashuvlar yuzaga kelishining asosini yaratadi. Bu “erkaklik” va “ayollik”ni ikki guruhga ajratib psixologik farqlarini ko‘rsatadi. Z.Freydning ta’limoticha, “...erkaklik – bu faollik, ayollik esa nofaollik” deb, tushuntiradi. Muallifning fikricha, “faollik” – bu dominantlik, agressivlik, kuchlilik; “nofaollik” esa bo‘ysunuvchanlik, zaiflik...”. “Suyukli ayol bo‘lish sevishdan ko‘ra kuchliroq ehtiyoj hisoblanadi” [3].

S.Bemning “Psixologik jins diagnostikasi” so‘rovnomasining tavsiflovchi ma’lumotlari tahlilidan ko‘rinadiki, maskulinlik bo‘yicha minimal 5 dan maksimal 17 ballgacha, femininlik shkalasi bo‘yicha minimal 2 dan maksimal 14 ballgacha natija bo‘lgan natija namoyon bo‘ldi. Maskulinlik shkalasida eksess qiymatining (4,048) og‘ishi ko‘pincha harbiy xizmatchilarda jins xususiyatidan qat’i nazar erkaklarga xos bo‘lgan sifatlardan jasurlik, qo‘rqmaslik, ekstremal vaziyatlarda emotsiyalarga berilmasdan ratsional fikrlash kasbiy identiklik hisobiga takomillashib borishi mumkinligini anglatishi dalillandi. Ayollarda esa harbiy xizmat faoliyatida ratsional fikrlash, dadillik kasbiy oriyentatsiyani aynan xarakter strukturasiga ko‘ra namoyon bo‘lishi kuchayishi mumkin ekan.

Ingliz tilidagi gender (umumiy xususiyat) grammatik atamasi erkak va ayol fazilatlarining doimiy (ontologik) mohiyatini emas, balki kontekstni aks ettiradi. Ushbu grammatik toifadan ijtimoiy-psixologik tushuncha sifatida foydalanish genderning biologik xususiyatlari odamga to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilmasligini, balki

har doim individual ong va ijtimoiy g‘oyalar prizmasi orqali sinishini, ya’ni ular haqida subyektiv va madaniyatda qayd etilgan bilim shaklida mavjudligi bilan izohlanadi.

Ushbu atama kiritilishi bilan ko‘pincha faqat biologik asoslarga tegishli bo‘lgan ayollar va erkaklarning psixologik xususiyatlari akkulturasiya va sotsializatsiya jarayonlari orqali tushuntirildi. Aynan genderning ijtimoiy muhitda namoyon bo‘lishi, psixologik jins xususiyatlariga ko‘ra tadqiq etilishi S.Bem tomonidan ilgari suriladi va bu gender muammosini tadqiq etishda bizga dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, shaxs xarakteri faoliyatda o‘zining biror belgisini ko‘rsatishi yoki qoldirishi bilan farqlanadi. Aynan insonni stressli vaziyatlarni boshqarishda undagi shaxsiy fe‘l-atvorining o‘zgarmas jihatlarini muhim rol o‘ynaydi. Xususan, harbiylarga xos bo‘lgan sabrlik, jasurlik, sadoqatlik kabi xarakter komponentlari aynan ekstremal vaziyatlarda o‘zining tarkibiy jihatlarini namoyon etadi. Chunki shaxs xarakteri shakllanish xususiyatiga ega bo‘lib, o‘zining jarayonga bo‘lgan munosabatini bildirishda individualligini saqlab qolishda asosiy rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham, tavsiflovchi ma’lumotlarimizda genderning ijtimoiy munosabatlardagi ko‘rinishlarida yuqoridagi narijalar qayd etilgan bo‘lsa, ajab emas.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ayollar qiziqarli bo‘lgandagina kuzatuvchanroq bo‘lishlari, ayollar o‘quv faoliyatida o‘ta harakatchan bo‘lishlari, eslab qolish qobiliyati kuchli rivojlanganligi ularda yaxshi natijalarni namoyon etadi. Qizlarni tarbiyalashdagi ijtimoiy talablarning ayrim xususiyatlari ayollarni olima bo‘lishi yoki mansabda o‘lish borasida jamoatchilik fikrini qayta shakllantirishni talab etadi. Chunki bunday qarashlar ayollarni yuqori rivojlanish darajasida muvaffaqiyatlarga erishishida to‘siqlarni vujudga keltiradi.

S.Bemning “Psixologik jins diagnostikasi” so‘rovnomasining Kolmogorov-Smirnov mezoni bo‘yicha normal taqsimlanish qonuniyatiga mosligi tekshirilganda maskulinlik ($Z=7,431$; $p<0,01$), femininlik ($Z=8,851$; $p<0,01$) ko‘rsatkichlarini noparametrik mezonlarga muvofiq tekshirish kerakligi ma’lum bo‘ldi (1-jadval).

1-jadval.

S.Bemning “Psixologik jins diagnostikasi” so‘rovnomasining normal taqsimlanishga mosligi (Kolmogorov-Smirnov mezoni bo‘yicha ($n=320$))

Ko‘rsatkichlar	Z	p
Maskulinlik	7,431	0,000**
Femininlik	8,851	0,000**

Izoh: ** - $p<0.01$

Harbiy xizmatchilarda maskulinlik nafaqat me’yor, deb e’lon qilinadi, balki haqiqatan ham ijtimoiy makonda mavjud bo‘lgan yagona narsa sifatida ko‘p marta qurildi va takrorlandi, jadal rivojlanayotgan ilmiy tafakkurni asoslab berdi. Ijtimoiy qurilish uchun mumkin bo‘lgan bunday noyob variantning “tabiiyligi” va “daxlsizligi” paradoksal ravishda armianing maskulinlashgan ijtimoiy institut sifatida mavjud bo‘lishi faqat ma’lum bir muassasa chegarasidan tashqarida mavjud

bo‘lgandagina zarur, deb hisoblanadi. Feminlik ko‘rsatkichining baland natija qayd etganligi harbiy institutiolizatsiyada ayol harbiy xizmatchilarning mavqei kundankunga mustahkamlanib borayotganligi bilan tavsiflanadi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchilarda stressga bardoshlilik kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim psixologik omil bo‘lib, uning shakllanishida gender jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Erkak va ayol harbiy xizmatchilarning stressni qabul qilishi, unga javob reaksiyalari hamda moslashuv strategiyalari o‘rtasida ma’lum darajada farqlar mavjudligi aniqlandi. Ushbu farqlar nafaqat biologik omillar, balki ijtimoiy rollar, tarbiya xususiyatlari va kasbiy tajriba bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, erkak harbiy xizmatchilar ko‘proq muammoga yo‘naltirilgan va faol strategiyalar orqali stressni yengishga intilsalar, ayol harbiy xizmatchilarda emotsional holatni boshqarish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga murojaat qilish kabi moslashuv mexanizmlari nisbatan ko‘proq namoyon bo‘ladi. Biroq bu farqlar stressga bardoshlilik darajasining ustun yoki pastligini emas, balki unga moslashish usullarining turlicha ekanligini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilarda stressga bardoshlilikni rivojlantirish jarayonida gender xususiyatlarini hisobga olish zarur. Psixologik tayyorgarlik, profilaktika va reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqishda erkak va ayol harbiy xizmatchilarning individual va genderga xos ehtiyojlarini inobatga olish xizmat samaradorligini oshirish, ruhiy barqarorlikni mustahkamlash hamda professional faoliyatda yuzaga keladigan salbiy oqibatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Бем С.Л. Линзы гендера: Трансформация взглядов на проблему неравенство полов. – Москва.: Российская политическая энциклопедия, 2004. 336 с.
2. Берковиц Л. Агрессия: причины, последствия, контроль. – Москва.: Прайм-Еврозона, 2005. 512 с.
3. Берн Ш.М. Гендерная психология. – Москва: “Impact Publishing”; СПб., 2001. 143 с.